



Received: November 7, 2023
Accepted: December 23, 2023
Available online: December 25, 2023

Maxliyo Umarova

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

XX ASR JADIDLAR HARAKATINING IZCHIL RIVOJLANISHI

ANNOTATSIYA

Har bir xalq o'z millatining milliy qahramonlari, jasur yo'lboshchilari bilan faxrlanadi. Millat tarixida shunday davr va voqealar bo'ladiki, ular tarix zarvaraqlariga muhrlanib qoladi. Ajdodlarimizning millatimiz taqdiri uchun kurashgani, o'z hayotlarini fido qilganlari va bizga qoldirgan me'roslari ham buning isbotidir.

Ikki buyuk asr bo'lmish XIX va XX asr oralig'i o'zbek adabiyoti tarixida muhim ahamiyat kasb etdi. XX asr boshlarida xalqimiz hayotida yuz bergan eng katta baxtsizlik-mustaqilligimizni yo'qotish bo'lsa, boshqa tomondan, adabiyotimiz davr voqealari ta'sirida g'arblashdi, davr talabi bilan yangi adabiy tur va janrlar paydo bo'ldi. O'zbek jadidchilik harakati ham uch mustaqil xonlik doirasida emas, Chor Rossiyasi mutlaqo tobe bo'lgan Turkiston gubernatorligi hamda Buxoro va Xiva xonligida uyushdi. Milliy uyg'onish XX asr adabiyotining mazmuni va ruhini tashkil etdi. Aynan shu sababli XIX asr oxiri va XX asr boshlari adabiyotini Milliy uyg'onish adabiyoti deyiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi milliy o'zlikni anglashda jadidchilik harakatining o'rni va jadidlarning vatan ozodligiga erishish, taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish borasida qilgan sa'y-harakatlariga izoh berib, ularning barcha sohalarida vatanimiz ravnaqiga qo'shgan hissalarini e'tirof etishdan iboratdir. Maqolada jadidlarning maktablari tashkil qilish, matbuot, adabiyot yo'lida qilgan ishlari va erishgan yutuqlariga alohida e'tibor qaratildi. Maqola oldiga qo'yilgan vazifalardan yana biri jadid ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla

Makhliyo Umarova

Associate Professor, Doctor of Sciences
in Philology (DSc)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: umarovamakhliyo76@gmail.com

CONSISTENT DEVELOPMENT OF THE XX TH CENTURY JADID MOVEMENT

ABSTRACT

Every country takes pride in its national heroes and courageous leaders. There are certain periods and events in a nation's history that will forever be remembered and documented. Those who fought for the future of their country, sacrificed their lives, and those who have left a legacy behind are a testament to this fact.

The period between the 19th and 20th centuries was a significant time in the history of Uzbek literature, which has a rich and ancient past. Unfortunately, the loss of our independence was a great misfortune for our people. On the other hand, the literature became westernized under the influence of the events of the time, and new literary types and genres appeared according to the demand of the era. Literary activity was organized in the governorate of Turkestan, which was completely subordinate to Russia, and in the khanates of Bukhara and Khiva, rather than the three independent khanates. The literature of the end of the 19th and beginning of the 20th century is referred to as the literature of the National Renaissance because it was shaped by the essence and spirit of the national revival.

The purpose of this article is to discuss the Jadid movement's role in promoting national identity, independence and knowledge sharing among their people, as well as their contributions to the development of our country across all areas. The article particularly focuses on the Jadids' achievements in school organization, press, and literature. It also highlights the significant works of Mahmudhoja Behbudi, Abdulla Avloni, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Is'haqkhan Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qadiri,

Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi taraqqiyparvarlarning millat amalga oshirgan ezgu ishlariga alohida izoh berib, ilmiy xulosa qilishdir.

Maqolada, shuningdek, o'zbek jadidchilik harakati, uning shakllanish va tanazzulga yuz tutishi davrlarida amalga oshirilgan ishlar qiyosan tahlilga tortilib, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy-ma'rifiy merosini ilmiy o'rganish qanday xulosalarga olib kelishi mumkinligi ham e'tirof etildi.

Ushbu maqoladan olingan natijalar adabiyotshunoslik bo'yicha ilmiy ish qilayotgan tadqiqotchilarning bilimlarini mustahkamlashda va ularni ajdodlarimiz merosidan bahramand bo'lishlariga ko'maklashadi.

Kalit so'zlar: jadid, qahramon, milliylik, tarix, yangilik, mustaqillik, ma'rifatparvar, adabiy tur, ajdod.

Abdulhamid Cholpon, Usman Nasir, who are modern era intellectuals that have played a vital role in the development of our country.

The article aims to conduct a comparative analysis of the Jadid movement, including its formation and defeat. It also explores the conclusions that can be drawn from the scientific study of the spiritual and educational legacy left by our ancestors.

The article's findings can enhance literary research and appreciation of ancestral heritage.

Key words: jadid, hero, nationality, history, innovation, independence, enlightener, literary type, ancestor.

KIRISH

“Jadid “atamasi ilk bor Usmoniylar saltanatida Sulton Salim III davrida paydo bo'lgan. “Nizomi Jadid” qurolli kuchlarning islohotini anglatgan. Keyinchalik “jadid” atamasi Turkiyada XX asr boshidagi adabiyotga, uning ham birgina yo'nalishiga nisbatan qo'llanildi. Shuningdek, “Rusiya jadidchiligi”, o'zimizda esa, “Buxoro jadidchiligi”, “Turkiston jadidchiligi” degan atamalarni uchratamiz. Bizningcha, harakat umumiy, ko'rinishlar konkret bo'lgani uchun farqli, mohiyat bitta – yangilanish [Qosimov, 2002; 7]. Jadidchilik (arab. jadid – *yangi*) [Madvaliyev, 2020] turkiy mamlakatlar – Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston tarixiga XIX asr oxiri XX asr boshlarida muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat sifatida kirgan. “Jadid” so'zi “yangi”, “yangilik” ma'nolarini anglatadi.

Insoniyat tarixida biror makon va zamon bo'lmaganki, jamiyatning bir maromda kechayotgan hayotiga kirib kelgan yangilik katta qarshilikka uchramagan bo'lsin [Hasanov & Karimov, 2016; 3]. Jadidchilik harakati ham ana shunday yangiliklar negizida murakkab va serqirra yo'lni bosib o'tganiga tarixning o'zi guvohlik beradi. Turkistondagi jadidlar avval o'zlarini “taraqqiyparvarlar”, keyinchalik jadidlar deb atadilar. Ozodlik uchun kurashda jadidlar o'z oldilariga bir qancha maqsadlar qo'yib oldilar: yangi usul maktablarini ko'paytirish, iqtidorli yoshlarni chet elga yuborish, ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, matbuotni rivojlantirish orqali xalqni ijtimoiy-siyosiy ongini ko'tarish o'stirish bo'lgan.

Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasiga tayanib, bu tajribani milliy asosda qayta ishlashga intildi, ayni paytda ijtimoiy taraqqiyot yo'llari haqidagi turli qarashlarning to'qnashuv maydoni ham bo'ldi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi ana shu

murakkab yo'lda shakllanib yetildi.

Tarixdan ma'lumki, jadidchilik harakati Turkistonga ilm-ma'rifat olib keldi. Mamlakatning turli jabhalarida faoliyat ko'rsatgan jadidlar xalqini savodli qilishga, odamlarga ziyo ulashishga intilishdi. Jadidchilik tarixiga nazar solsak, ushbu harakat Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'lib, uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gasprinskiy (1851–1914) bo'ldi. Bog'chasaroyda dastlabki jadid maktabini ochgan I. Gasprinskiy Turkiston general-gubernatori N.O. Rozenbaxga o'lka musulmon maktablarini ham isloh qilishga doir loyihasini yuboradi. Rad javobini olgach, 1893-yil Turkistonga o'zi keladi, Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo'lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazadi [Ibragimov, 2021; 122]. Shunday qilib, I. Gasprinskiy Turkistonda jadid maktabi tashkil etib, qirq kunda o'n ikki bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli "usuli savtiya", ya'ni "yangi usul" nomi bilan shuhrat qozondi. Ismoilbek g'oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari "jadidlar", uning g'oyalari esa "jadidchilik" nomini oldi. Bu haqida I. Gasprinskiy shunday yozadi: "...1884 sanasi Boqchasaroyda bir maktabni usuli kadidga qo'mish edim, Samarasi umidimdan ziyoda o'ldi. Bir qoch (qancha) maktablar usulimni qabul ila isloh o'ldilar. Soir (ko'p) viloyatlardan usul ko'rmiya (ko'rmakka) kelub – kedanlar o'lub, bu soyada har tarafdin iki yuzdan mutajovuz (ortiq) maktablar usulimni qabul etdilar" [Gasprinskiy, 1898; 4]. Bu misralar I. Gasprinskiy tomonidan Turkistonda qirq kun ichida o'quvchilarga o'qish va savodni o'rgatadigan maktab ochgani haqida edi. Yangi usul asta-sekinlik bilan mashhur bo'lib, musulmon mamlakatlarida e'tiborni jalb etdi. I. Gasprinskiy taraqqiyparvarlik g'oyalarini shakllantirishdagi asosiy shaxslardan biri bo'lib, Turkiston jadidchiligining ravnaqiga katta hissa qo'shdi.

ASOSIY QISM

Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda: 1) XIX asr oxirlaridan 1915-yilgacha – ma'rifatchilik; 2) 1915-yildan-1918-yil fevraligacha – muxtoriyatchilik; 3) 1918-yil fevralidan 20-yillar oxirlarigacha – Mustabid sovetlar davridagi faoliyati [Qosimov, 2002; 8].

1917-yil davomida mahalliy aholining turli-tuman ijtimoiy qatlamlarini jadidlar o'z ortlaridan ergashtirdilar, xalq orasida, ularning ongida, fikrlarida musulmonlar birlashishlari, jipslashishlari zaruriyati hissini tug'dirdilar. Biroq oradan ko'p o'tmay jadidlar Muvaqqat hukumat va uning maxsus tashkil etilgan Turkiston Qo'mitasi (Turkkomitet Vremennogo Pravitel'stva) o'lkada oldingi mustamlakachilik siyosatidan voz kechmaganligining guvohi bo'ldilar. Xususan, bu holat 1917-yil noyabr oyiga rejalashtirilgan Ta'sis Majlisini chaqirish va uni tayyorlash jarayonida yuz berdi. Yuqorida ta'kidlanganidek, jadidchilik harakati dastlab maktablarning ochilishi bilan boshlandi. Buxoro amiri Abdulaxad I. Gasprinskiyni Buxoroda jadid maktabi ochishga ko'ndirgandan so'ng ushbu maktab "Muzaffariya" nomi bilan faoliyat yuritdi. Bu

yangi turdagi jadid maktablarining tashkil bo'lishiga dastlabki qadam edi. Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Abduqodir Shakiriy, Qo'qonda Saloxiddin domla, Andijonda Shamsuddin domla jadid maktablarini ochdilar. Yangi usul maktablari uchun maxsus binolar qurilmagan. Ular xususiy bo'lib, ko'p hollarda maktab uchun muallimning o'z uyidan yoki biron foydalanilmayotgan joy binolaridan hamda ba'zi shaxslarning tashqi hovlilaridan foydalanilgan. Chor hukumati amaldorlari bunday maktablar milliy madaniyatning o'sishiga yordam berishidan cho'chib, podsho hokimiyati uchun xatarli deb hisobladilar. Shuning uchun ularning faoliyatini bo'g'ib qo'yadigan turli tadbirlar ko'rildi.

Jadidchilik harakatining peshvolari nafaqat maktablar yaratib, balki o'sha maktablarda bilim berish faoliyatini yuksaltirishga o'zlarining hissalarini qo'shib, jadid maktablari uchun darsliklar yaratdilar. Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval" (1903), Munavvarqorining "Adibi avval" (1907), Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" (1912) darsliklari alohida e'tiborga molikdir.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.

3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Jadidchilikning poydevori – maktablar edi. Shuning uchun ham mahalliy maktablarni tubdan isloh qilish, zamon talablariga mos maktablar, oliy o'quv yurtlarini tashkil etish jadid mutafakkirlarining asosiy vazifasiga aylangan edi [Qo'ldoshev, 2023; 221]. Birinchi bosqichni tashkil qilishdan asosiy maqsad xalqning savodxonligini oshirish, ilm-fan, adabiyot va san'atni kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada jadidlar Turkistonning turli o'lkalarida o'zlarining faoliyatlarini yeng shimarib boshlab olishdi. Toshkentda Munavvarqori va Avloniy, Samarqandda A.Munzim, S.Aziziy, A.Shakiriy, Mulla Qilich, Buxoroda Jo'raboy Maxsum, Qo'qonda Hamza, Namanganda So'fizoda, Ibrat singari olimlar shular jumlasidandir. Ko'rinib turibdiki, ushbu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar ham jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning tahsil muddati to'rt yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forsa, turkiy tilda bimalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar [Asilov & Qudriddinova, 2018; 181]. Maktablarni ko'paytirish barobarida o'sha maktablarda o'tiladigan fanlar kesimida darsliklarni yaratishga ham e'tibor qaratildi. Bilim berishni boshlab yuborgan jadidlar qay tarzda, qanday usulda bilimlarni berishni ham o'ylab, o'zlarining usullaridan kelib chiqib turli xil darsliklar yarata boshladilar. Misol uchun, 1888-yilda ushbu maktablar uchun birinchi darslik "Xojai

sibyon” (“Bolalar muallimi”)ni bosmadan chiqarildi. “Usuli jadid”ga boʻlgan ehtiyoj tushuntirildi, “usuli qadim”dan farqiga eʼtibor qaratildi. Adabiyotlar nafaqat oʻrganuvchilar uchun, balki oʻrgatuvchi muallimlar uchun ham alohida boʻlim, ularda savodxonlikda qaysi harfi qay tarzda oʻrgatishdan tortib, qanday usullardan foydalanish haqida ham alohida toʻxtalangan edi. “Xojalarga taʼlimot” (Muallimlarga yoʻllanma) kitobida oʻquv soatlari bolalarning yoshlariga muvofiq taqsimlanishi kerakligi, har bir harfning oʻrgatish usullari haqida soʻz boradi. Bu kitobning diqqatga sazovor tomoni shuki, har bir darsdan keyin oʻsha mavzu boʻyicha savollar berilib, muallif buni oʻquvchilarning mavzuni qay tarzda oʻzlashtirganliklarini tekshirishi, yaʼni ulardan imtihon olishi uchun bir vosita edi.

Turkistonda Rusiya hukumati rus-tuzem maktablarini tashkil etdi. Bunday maktablardan birinchisi 1884-yilda Toshkentda, 1891-yilda Xivada, 1894-yilda Buxoroda ochildi. Ushbu boshlangʻich maktablarining asosiy maqsadlaridan biri mahalliy xalqni ruslashtirish, ajdodlar tarixi va madaniyatini millat xotirasidan oʻchirib tashlashdan iborat edi. Bunday maktablar nafaqat Turkistonda, balki Tatariston, Ozarbayjon kabi qardosh oʻlkalarda ham tashkil etilgan edi. Bu haqida I.Gasprinskiy shunday yozadi: “Tatarlar uchun ochilgan rus maktablari oʻlik tugʻilgan muassasaning oʻzginasidirki, buni ushbu ishning nazariyasi va amaliyoti yaqqol isbotlab turibdi” [Qosimov, 2002; 24]. Bunday maktablarni xalq u qadar xushlamasa-da, ziyolilar tomonidan turli darsliklar yozldi. 1901-yili Saidrasul Aziziy tomonidan “Ustozi avval” deb nomlangan darslik bunga misol boʻla oladi. Rus-tuzem maktablarida tahsil olgan ziyolilar rus tilini yaxshi oʻrganishgani bois rus tili va adabiyoti taʼsirida oʻzbek adabiyoti taraqqiyotiga oʻz hissalarini qoʻshdilar. Bunga misol qilib jadid ziyolilaridan Choʻlpon va Qodiriyning olishimiz mumkin.

Turkistonning turli viloyatlarida “usuli jadid” maktablari ochilib, ziyolilar u maktablarga turli darsliklar yozishdi. Buxorolik olim Rustambek Qoʻldoshevning yoshicha: “Yosh buxoroliklar tomonidan tuzilgan “Buxoroyi sharif shirkati” muassisligida S.Ayniyning jadid maktablari uchun yozgan “Tartil ul-Qurʼon” (“Qiroat kitobi”), “Zaruriyoti diniya” (“Diniy kitob”) va “Tahsib us-sibyon” (“Bolalar tarbiyasi”) nomli oʻqish kitoblari 1909-yilda Orenburgda nashr etiladi. Ayniy “Tahsib us-sibyon” darsligini I.Gasprinskiyning “Xoʻji sibyon” (“Bolalar muallimi”) kitobi taʼsiri ostida yozgan. Bu kitob 1917-yilda Samarqandda “Maʼrifat kutubxonasi” (1914-yilda yosh buxoroliklar tashkil etgan) tomonidan ikkinchi marta nashr etiladi” [Qoʻldoshev, 2023; 223].

Samarqandda ham jadidchilikning ilk kurtaklari maktablar tashkil etilish bilan bogʻliq edi. Samarqandlik jadid ziyolilaridan Mahmudxoʻja Behbudiy buxorolik doʻsti Hoji Baqo bilan haj safaridan qaytib, Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar ochadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jugʻrofiyai umroniy” (1905), “Risolai jugʻrofiyai Rusiy” (1905), “Kitobat-ul atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo boʻladi [Hakimov, 2020].

1900-yil Toshkentda Munavvarqori tashkil qilgan yangi usul maktabi ish

boshladi. Keyinchalik u namuna maktabiga aylantirilib, unda 5-6-sinf kabi yuqori sinflar bo'lgan. Toshkentlik ma'rifatparvar Saidrasul Saidazizov shaharda yangi usuldagi mahalliy maktablar ochgan, ularni rus-tuzem maktablaridagi ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ishlangan dastur va darsliklar bilan ta'minlagan, o'zi ham o'qituvchilik qilgan. Uning "usuli savtiya" ("tovush usuli") metodidagi "Ustozi avval" (1902) darsligi 17 marta nashr etilgan. Munavvarqorining "Adibi avval", "Adibi soniy" (1907), Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" (1910), "Ikkinchi muallim" (1912) kabi darsliklari chop qilingan. Bunday maktablar Andijon va Namanganda, Xiva xonligida ham ochilgan.

Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar [Komilova, 2021; 370]. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegishi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni.., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va durulsaltanatlariga yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqqa sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining "Jamiyati Xayriya" nomli yordam tashkiloti "ilk maktablarni bitirgandan so'ngra Turkiya, O'rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalaraga yordam ishlarini boshqarar edi" [Abdurashidxonov, 2001; 108-109]. Jadidlar bilim berish jarayonida keng qamrovli bo'lishib, o'zlari ijodkor, tashabbuskor bo'lishlari bilan bir qatorda chet mamlakatlardagi jadidlarning ishlaridan ham xabardor bo'lishgan, shu jumladan, Rossiya, Turkiya, Misr kabi mamlakatlar bilan aloqa o'rnatishgan. Shuning uchun 1905-1906-yillarda Rossiyadagi inqilobiy harakatlar, o'z navbatida, Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Jadidlar "uyg'onish bu dunyo bilan hamnafas bo'lish" shioriga ko'ra yoshlarni G'arb va Sharq taraqqiy qilgan mamlakatlariga o'qishga yuborishga alohida ahamiyat berdilar [Qosimov, 2002; 28]. Turkistondan ko'p jadidlar Istanbulga, keyinroq Germaniya o'qishga yuborildi. Chunki Ovrupa ilm-fanini egallamasdan turib, dunyo bilan barobar yashab bo'lmasligini jadidlar yaxshi tushunishar edi. Shuning uchun jadid ziyolilari til o'rganishga ham alohida ahamiyat qaratishgan edi. Lekin o'ta ovruपालashib ketish milliylik, o'zlikni yo'qotish ekanligini ham yaxshi bilishardi. Muvozanatni ushlab turish katta jasorat edi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma'rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar.

Jadidchilik g'oyalarining targ'ib qilinishida milliy matbuotning roli katta bo'ldi. O'lkada dastlabki gazetalar nashr qilina boshlandi. Jadid gazetalarining birinchi qaldirg'ochi "Taraqqiy" nomli gazeta bo'lib, u Ismoil Obidov muxarrirligida 1906-yilda chiqa boshladi. Uning sahifalarida chor Rossiyasining Turkistonda olib borayotgan mustamlakachilik siyosatini dadillik bilan fosh qilishga bag'ishlangan maqolalar, xabarlar va ma'lumotlar bosilgan [Abdurahmonova, 2020]. Bundan tashqari, unda milliy madaniyat va ozodlik uchun kurashga chorlovchi maqolalar bo'lib, ular ommaviy nashrga aylanib, jamoatchilikka katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu gazetada Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, So'fizoda, Zarif Xoliqiy va boshqa taniqli jadidlarning milliy ozodlik, taraqqiyot g'oyalarini targ'ib

va tashviq qiluvchi asarlari chop etib turilgan. Aynan shu yildan Munavvarqori muharrirligida “Xurshid” gazetasi o‘z faoliyatini boshladi. Bu gazetada “Felyeton”, “Axbori xorijiya” va boshqa ruknlari bo‘lib, ularda xalqaro vaziyat, milliy turmush masalalari haqida ma’lumot berib borilgan. 1907-1908-yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida “Shuhrat”, Axmadjon Bektemirov muharrirligida “Osiyo” ro‘znomalari chop etildi. Turkistonning turli jabhalarida shu kabi gazetalar chop etila boshlandi. Bular: “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Buxoroi sharif”, “Turon”, “El bayrog‘i”, “Kengash”, “Xurriyat”, “Ulug‘ Turkiston” gazetalari, “Oyina” jurnali kabilardir.

Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday hodisalar millat adabiyotida aks etishini yaxshi bilamiz. Turkistonda 1910-yillarda jadid matbuoti bilan bir qatorda jadid adabiyoti ham maydonga keldi. Bu adabiyot asosan 1905–1918-yillarda shakllanib, Turkiston muxtoriyatining mag‘lubiyatga uchrashi bilan tanazzulga yuz tutdi va uning aksar vakillari sho‘ro hokimiyati bilan murosaga kirishdi [Karimov va boshq., 1999; 18]. O‘z asarlarida xalq dardini kuylash, millat ma’naviyatini boyitish, ozodlik uchun kurashish va odamlar tafakkurini oshirishni rejalashtirgan va bu borada fidoiylilik ko‘rsatgan, alaloqibat qatag‘onga uchragan millatimiz ardog‘idagi jadid ma’rifatparvarlari haqida gap ketganda Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is‘hoqon Ibrat, Usmon Nosir kabilar ko‘z oldimizga keladi. Ular badiiy ijodning barcha jabhalarida o‘zlarini namoyon etishdi. Insonlarni ozodlikka chorlashda yetakchilik qiluvchi she‘riyatda ham jadidlar ilg‘or edilar. Ular ijodida, shuningdek, nasriy asarlar ham katta o‘rin tutar edi. Fitratning “Munozara” asarini jadid nasrining ilk namunasi sifatida sanash mumkin [Yoqubov, 2012; 28]. O‘z ijodini XX asrning boshlarida ozodlik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi she‘rlar bilan boshlagan asli buxorolik bo‘lgan jadid Abdurauf Fitratning XX asr adabiyotida o‘rni beqiyosdir. Uning ijodida 1909–1913-yillar katta ahamiyatga ega. Buning asosiy sababi uning Turkiya dorilfununida tahsil olganidir. Fitratning bir qator asarlari Turkiyada forsiy tilda chop etiladi. Uning “Munozara” (Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘on munozarasi) asari ham ulardan biri bo‘lib, 1909-yilda Hindistonda nashrdan chiqdi. Jadidchilik harakati yo‘lida ilk nazariy asarlar ham aynan “Munozara” asari hisoblanadi. Bu asar to‘g‘risida taniqli adabiyotshunos olim Hamidulla Boltaboyev yozganidek: “Ulug‘ yunon faylasufi Aflotun asarlari uslubida ya’ni suhbat-bahs uslubida yozilgan” [Boltaboyev, 2007; 140]. Bu jihatni asar nomlanishidan anglab olish mumkin. Tarixiy taraqqiyotning ikki pog‘onasida turgan din va dunyo, jamiyat va ma’rifat haqida ikki xil qarashga ega bo‘lgan farangi va buxorolik mudarris bahs-munozara qiladi. Bu asar Buxoro amirligida ta’qiqlab qo‘yilishiga qaramasdan, 1911-yilda “Turkiston viloyatining gazetasi”da Hoji Muin Shukrulloh o‘g‘li tarjimasida chop etilib, ikki yildan so‘ng 1913-yilda Behbudiy so‘zboshisi bilan alohida kitob shaklida nashr qilindi. Behbudiy bu asarning o‘sha paytdagi zamon uchun eng muhim bo‘lgan xususiyatlarini ta’kidlab, shunday deydi: “Usuli jadida maktablarni nafligi va fununi zamoniya tahsilining buxoriylar uchun luzumi to‘g‘risida farangi afandi ila mudarris buxoriy janoblarini

oralarida bo'lgan bahs va suhbat – “Munozara” isminda bir risola shaklinda forsiy tilg'a tab' va nashr bo'lubdur. Bizda ko'zdun kechurdukki, haqiqatan buxoriylar uchun nofe'dir. Farangiy va mudarris tilidan bu muhim bahslik risolani tahrir etuvchi vahmi zoing'a arzi tashakkur qilarkan, inshoollo, bu risola buxoriylarni uyg'onmoqig'a bois bo'lub, “Munozara” muharririni rahmat ila yod etarlar” [Mahmudxo'ja, 1911]. Bu asar nafaqat Buxoro amirligi balki Rossiya hukumati tomonidan ham ta'qib qilinishiga qaramasdan sharq va g'arb mamlakatlarida keng tarqalib, xalq ko'zining ochilishida muhim ahamiyat kasb etgan mashhur asar hisoblanadi. Sadriddin Ayniy “Namunai adabiyoti tojik” da “Munozara” davr taraqqiyotiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatdi”, deb yozadi.

“Munozara” asaridagi bahs “usuli qadim” va “usuli jadid” maktablari haqida borib, Buxoro amirligining ma'naviy-ma'rifiy ahvoli juda ayanchli ekanligi, ziyoli ulamolar qatlami ham jaholat botqog'ida qolib ketganligi haqida achinib gapiriladi. Bunday tushkun va nochor ahvolga tushib qolishlarining sababchilari – Buxoro amirlik tuzumi va Rossiya ekanligi ham suhbat davomida ochib berilgan. Diniy va dunyoviy bilimga ega bo'lgan, dunyo ko'rgan, hattoki, musulmon dinidan xabardor bo'lgan farangi mudarrisning ilmsizligi, johilligidan hayratga tushib, musulmon farzandlarining taqdiri shunday mudarrislar qo'liga tushib qolganligidan afsuslanadi [Eshmurodova, 2023; 185]. Asarda shunday misralar borki, ularda muallif o'z millatining ayanchli ahvolda ekanligini achininb, qahramonlar tilidan kuyinib gapiradi. Farangning: “Sizning yurtigingizda jug'rofiyo o'qimaylarmi?” degan savoliga mudarris: “Men bir mudarris bo'lsam, kechalari kitob ko'raman, kunduzlari dars aytaman. Qachon qo'lim tegibdiki, bunday hikoyat kitoblarni o'qisam” [Fitrat, 2000; 95].

Mudarris dunyo ilmidan mutlaqo bexabar, hattoki, ilm olishni ham befoйда ekanligini ta'kidlaydi. Mudarrisning fikricha: “Hamma ilimli bo'lishi mumkin emas. Agar hamma olim bo'lib ketsa, boshqa ishlar egasiz qoladi” [Fitrat, 2000; 47]. Bu misralardan ko'rinib turibdiki, Fitrat Turkiston ahlini zudlik bilan bu falokatdan qutqarish kerakligiga ishora qiladi. Asardagi suhbat ham aynan shu masalalarga bag'ishlanadi. Jadidchilik adabiyotining vakillari milliy jaholatga qarshi jabha ochishga va mustaqillik yo'lini izlab topishga da'vat etdilar.

Jadidchilik nasrida Abdulla Qodiriyning o'rni alohida ahamiyatga ega. Uning ismi tilga olinganda “O'zbek romanchiligining asochisi” deya e'tirof etiladi. Haqiqatdan ham Qodiriy milliy romanchiligimizga tamal toshini qo'ygan adib hisoblanadi. O'zbek adabiyotida yangi yo'l-yo'nalishni boshlab bergan, o'zbek romanchilik maktabiga asos solgan siymoning jadidchilik nomi bilan tarixga kirgan XX-asr boshidagi yetakchi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy harakatdan chetda turishi mumkin emas edi. Vaholanki, o'zbek adabiyotida roman janri Qodiriy nomi bilan bog'langani holda, uning hajv, publitsistika janrlarida ham zamonasining yetakchi ijodkori bo'lgani hayratlanarlidir [O'narov, 2019].

Jadid adabiyotida she'riyat ya'ni jadid she'riyati eng sermahzul va ommabop janr sifatida alohida ko'zga tashlanadi. Jadid g'oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida she'riyat san'atining ta'sir ko'rsatishi kuchli bo'ldi.

Shuning uchun ham jadid adiblarining aksariyat yirik nomayondalari o'z ijodiy-amaliy faoliyatini she'r yozish va drama bilan bog'liq holda olib bordi. Jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari bo'lgan yirik iste'dod egalari – jadid adibi, shoiri, dramaturgi va san'ati arboblarni ham tarbiyaladi. Bunga yaqqol misol qilib Abdulhamid Cho'lponni (1897–1938) keltirishimiz mumkin. XX asr o'zbek she'riyati aynan Cho'lpon davri bo'ldi. Cho'lponning she'riy merosi nisbatan katta emas. “Uyg'onish” (1922), “Buloqlar” (1923), “Tong sirlari” (1926) va “Soz” (1935) to'plamlari, shuningdek, “O'zbek yosh shoirlari” (1922) jamoa majmuasidan, bundan tashqari, vaqtli matbuot sahifalaridan o'rin olgan she'rlari 300taga yetmaydi.

Abdulhamid Cho'lpon o'z she'rlarida jadidchilik g'oyalarini olg'a surdi. Shunday qilib, jadid adabiyotida she'riyat o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. Cho'lponning she'rlari jadid adabiyoti mafkurasini yoritib bera oldi [Termiziy, 2022; 714]. Cho'lpon adabiyotning juda ko'p tur va janrlarida samarali ijod etgan bo'lsa-da, shoir sifatida ko'proq tanildi. U o'zbek adabiyotining zabardast vakili, yangi o'zbek she'riyatining asoschisidir. Uning o'z davrida to'plamlarda bosilib chiqqan va bugun ma'lum bo'lgan she'rlari juda ko'p emas edi [To'qay, 1976; 391]. Avvaliga rus-tuzem maktabida tahsil olib, keyinchalik o'z faoliyatini “Sadoi Turkiston” gazetasi bilan bog'lagan ijodkorning asarlari Orenburg, Ufa, Qozon va Bog'chasaroyda chiqadigan gazeta va jurnallarda ham bosilib turgan. Cho'lpon Fitrat taklifi bilan “Buxoro axbori” gazetasiga rahbarlik qiladi. Cho'lponning boshqa jadidlardan ajralib turuvchi yana bir jihati u jahon adabiyotida muhim o'rin tutgan turli millat yozuvchilarining rus tiliga tarjima qilingan asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilganidir. U Pushkinning “Dubrovskiy”, “Boris Godunov” asarlarini, Gorkiyning “Ona” romani va “Yegor Bulichev” pyesasini, Lohutiyniing “Yevropa safari”ni, Gotsiyniing “Malikai Turandot”, Shekspirning “Hamlet” dramalarini o'zbek tiliga tarjima qilish orqali o'zbek va jahon adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa qo'shdi. Cho'lponning kichik hajmli she'rlaridan tortib, katta janrdagi barcha asarlarida, barcha ma'rifatparvar ijodkorlar ijodida jadid adabiyoti mafkurasi o'ziga xos mavzuga aylana oldi. O'sha davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, jadid adabiyotidagi barcha janriy izlanish holatlari ko'plab uchrab turishi va ularning mafkurasi chinakam mavzuga aylana oldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jadid yozuvchilari o'zlarining ma'rifatchilik, millatparvarlik g'oyalarini olg'a surishda milliy adabiyotda teran tomirlarga ega bo'lgan she'riyatdan tashqari, nasr, dramaturgiya va badiiy publitsitika singari janrlardan ham foydalandilar [Termiziy, 2022; 714].

Jadidlar ma'rifat targ'ibotchilari bo'lganliklari uchun ular o'z maqsadlarini xalq orasida tezroq yoyilishi uchun dramaturgiya va uni sahnada namoyish etguvchi teatrdan foydalanishni ma'qul topdilar. Bu eng to'g'ri yo'llardan biri edi. Birinchi o'zbek dramasi deganda Mahmudxo'ja Behbudiy ismi tilga olinadi. Uning “Padarkush” dramasi jadidchilik dramaturgiyasiga yo'l ochdi. Ushbu dramada jamiyatda sodir bo'layotgan xunrezliklar, qotilliklar hatto farzand otasining qotiliga aylanayotgani badiiy ifoda etib berilgan. Jadid drama janrining taraqqiyotida Fitrat o'rni ham beqiyosdir. Fitrat dramalarining asosiy mavzusini Turkiston tarixidan olgan va tarix voqealarini “yoshlar ko'z oldi”da gavdalantirib, Turkiston milliy hayoti bilan

bog'lashga harakat qilgan.

Jadidlar millatimizning muvaffaqiyatlar sari olg'a borishida, tariximiz istiqbolida katta mehnatlari singgan. Jadidlarni eslash, ularning qoldirgan me'rosini asrab-avaylash o'zbek millatiga xos bo'lgan jihatlardandir. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jadidlar me'rosini chuqur o'rganish ularning ijodiga e'tibor yanada kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 8-oktabrda F-5598-sonli "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi e'lon qilindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2023-yilning 11-12-dekabr kunlari poytaxtimiz Toshkentda Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Fanlar akademiyasi Tarix instituti va Turkiy davlatlar tashkiloti hamkorligida "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Jadidchilik harakati g'oyasi, maqsad va vazifalarini izchil o'rganish, jadidlarning ma'rifat va noshirlik sohasidagi hissasi, milliy davlatchilik shakllanishi bo'yicha ijtimoiy-siyosiy sa'y-harakatlari, shuningdek, jadidlarning ilmiy va madaniy merosi, ularning tadqiqotlari borasida fikr almashilishi ham jadidlarga bo'layotgan yuksak e'tirofdan dalolatdir. Xususan, Prezident Sh.Mirziyoyevning mazkur konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabriklarida quyidagi fikr qayd etilgan: "Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi" [Mirziyoyev, 2023].

Temur Xo'jao'g'li, Adib Xalid, Hisao Komatsu, Saidakbar A'zamxo'jayev, Hamidulla Boltaboyev, Zaynobiddin Abdurashidov singari taniqli jadidshunos olimlar jadidchilik harakati g'oyasi, maqsad va vazifalari, milliy davlatchilik shakllanishidagi ijtimoiy-siyosiy sa'y-harakatlari, shuningdek, jadidlarning ilmiy va madaniy merosi bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirishdi [Namazova, 2023; 2]. Zero, "turkistonlik jadidlar o'z ma'rifatchilik g'oyalarni faqat yangi usul maktablari orqaligina amalga oshirish mumkinligini anglagan edilar. Ular yangi usul maktablari uchun ta'lim dasturi ishlab chiqish, darsliklar nashr qilish, uni mavjud maktablarga joriy qilishga kirishganlar. Bugun biz aynan shu g'oyalarni hayotda qo'llashga intilmoqdamiz" [Mirziyoyeva, 2023]. Jadidlarning milliy ozodlik harakatida, har bir jabhada dastlabki qadamlarni tashlashganini ularning qilgan ishlari orqali ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Mamlakatda hozirgi kunda xalqimiz tinch, osoyishta hayot kechirmoqda. Bunday farovon va to'kin kunlar og'ir sinovlar va mashaqqatlar evaziga erishilganligi

hech birimizga sir emas. Shu yo'lda qurbon bo'lgan minglab ajdodlarimiz yuksak ta'zimga munosib.

“Bir millatni yo‘q qilish uchun uning tarixini yo‘q qilmoq kerak” deya e’tirof etgan buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnayn. Turkistonni yo‘q qilmoq uchun urinishlar ko‘p bo‘ldi. Necha-necha asrlar davomida millatimiz tarix sahnasida mag‘lubiyatlar bilan yashashga mahkum edi. XX asr boshlarida boshiga tushgan kulfatlardan ezilgan xalqimiz ziyoliylari bo‘lmish jadidlar millatimizni birlashtirish va milliy mustaqillik uchun kurashish g‘oyasini ilgari surishgan. Ularning tashabbusi bilan san‘at, madaniyat, adabiyot va butun bir jamiyatda tub o‘zgarishlar hosil bo‘lishi rejalashtirilgan. Jadidlar millat uyg‘onishi, rivoji va ma‘rifati uchun ulkan hissalari qo‘shdilar. Ularning maqsadi qoloqlikda yashayotgan Turkiston xalqini jaholat girdobidan olib chiqish, yoshlarni jahon ilmu-ma‘rifatidan xabardor etib, ularga dunyoviy bilim berish, qisqa qilib aytganda xalqni g‘aflati uyqusidan uyg‘otish edi.

Yangilanishni dastlab maktablardan boshlagan jadidlar deb Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakiriy, Saloxiddin domla, Shamsuddin domlalar e’tirof etilsa, Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Avloniy va Cho‘lponlar esa jadid maktablari uchun darsliklar yozishgan. “Usuli jadid” maktablari qadimchilar va chor Rossiya tomonidan ko‘p ta’qiblarga uchradi.

Matbuot jadidchilikning keng yoyilishiga asosiy tayanch vazifasini o‘tadi. U hozirgi zamondagi ijtimoiy tarmoqlar bilan baravar ta’sirga ega bo‘lgan kuchli vosita edi. Matbuotning asosiy vazifasi ommaviy fikrni hurlik tomon yetaklab, milliy mustaqillikka erishish edi. Gazetalarning paydo bo‘lishi Turkistonning matbuotiga tamal toshini qo‘yilishi edi. Jadid adabiyoti ham bevosita ijtimoiy-siyosiy va ma‘rifatchilik mafkurasi, milliy-ozodlik xususiyatiga ega bo‘lgan adabiyot edi. Jadid adabiyotining qahramoni o‘zbek mumtoz adabiyotining qahramonidan farq qilardi. Jadid davri adabiyotiing qahramoni mustamlaka jamiyat tartiblari, milliy tengsizlik bilan kelisha olmaydigan, ozodlik uchun kurashuvchi qahramon edi. Bu davr yirik jadid yozuvchilari, dramaturglari, san‘at arboblari va turli iste’dod egalari Sadriddin Ayniy (1878–1954), Abdulvohid Burxonov (1875–1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929), Abdulla Qodiriy (1894–1938), Abdulhamid Cho‘lpon (1897–1938)dek buyuk shaxslarni tarbiyaladi.

Jadidlar orasida birinchi o‘qituvchi, birinchi universitet professori, birinchi dramaturg, birinchi o‘zbek romanining asoschilari bor. Bizning millatimiz o‘z “birinchi”laridan doim faxralanadi va ularning me’rosini e’zozlaydi. Jadidlarimizning bebaho hazinalarini saqlash va o‘rganilmagan jihatlarini o‘ranish bugungi kundagi muhim vazifalarimizdandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. (2023-yil 12-dekabr). “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqloq va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. *“Xalq so‘zi” gazetasi*, 264(8607), 1.
2. Mirziyoyeva, S. (2023-yil 11-dekabr). Biz jadidlarning ta’lim borasidagi g‘oyalarini hayotda qo‘llashga intilmoqchimiz. *Kun.uz*. <https://m.kun.uz/uz/news/2023/12/11/saida-mirziyoyeva-biz-jadidlarning-talim-borasidagi-goyalarini-hayotda-qollashga-intilmoqchimiz>.

3. Abdurahmonova, S. (Jurn). (2020-yil 27-iyun). “Jadidlar barcha mavzular uchun ochiq edi” – Tarixchi bilan milliy matbuot tarixi va qatag’onlar haqida suhbat. *Kun.uz*. <https://kun.uz/24722918?q=%2Fuz%2F24722918#!>.
4. Abdurashidxonov, M. (2001). *Xotiralarimdan: jadidchilik tarixidan lavhalar*. Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik jamiyati.
5. Asilov, G.A., & Qudriddinova, N.D. (2018). *O‘zbek tili*. Toshkent: “Yosh kuch” nashriyoti.
6. Boltaboyev, H. (2007). *Fitrat va jadidchilik*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
7. Eshmurodova, G. (2023). Abdurauf Fitratning “Munozara” asarida ma’rifatparvarlik g’oyalari talqini. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 184–188.
8. Fitrat, A. (2000). *Tanlangan asarlar* (1-j.). Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyot uyi.
9. Gasprinskiy, I. (1898). *Rahbari muallimmin yoki muallimlarga yo‘ldosh*. Crimea: Simferopol.
10. Hasanov, B., & Karimov, N. (Muhar.). (2016-yil 15-aprel). So‘zboshi. “Jadid ma’rifatparvarlarining milliy ta’lim, matbuot, adabiyot va san’atni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi va uning Milliy g’oya targ‘ibotidagi ahamiyati” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (B. 3–5). Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi.
11. Ibragimov, S.E. (2021). Jadidchilik harakati. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(3), 119–129.
12. Karimov, N., Mamajonov, S., Nazarov, B. (1999). XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.
13. Komilova, H.N. (2021). Jadidlar faoliyatida ma’rifatparvarlik va barkamol avlod tarbiyasi masalalari. *Journal of Scientific Progress*, 2(8), 368–372.
14. Madvaliyev, A. (Muhar.). (2020). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi* (2-j. Y–M). Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
15. Mahmudxo‘ja, B. (1911-yil 29-sentabr). “Munozara” haqida. *Turkiston viloyati gazetasi*, 73.
16. Namazova, N. (2023). Jadidlarni eslab yurt osha... “Til va adabiyot ta’limi” ilmiy-metodik jurnali, 12, 2.
17. Qo‘ldoshev, R. (2023). Jadid maktablarida yaratilgan darsliklar va ularning metodik imkoniyatlari. *Obrazovaniye i innovatsionnyye issledovaniya*, 1, 221–225.
18. Qosimov, B. (2002). *Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylilik*. Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti.
19. Termiziy, Q. (2022-yil 30-noyabr). Jadid adabiyotida janriy izlanishlar (Cho‘lpon she’riyati misolida). “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani m (B. 714–716). Toshkent: Science & Innovation.
20. To‘qay, A. (1976). *Asarlar* (3-j.). Tatariston: Qozon nashriyoti.
21. Yoqubov, I. (2012). *Milliy uyg‘onish davri o‘zbek nasri*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
22. O‘narov, S. (Jurn.). (2019-yil 10-aprel). O‘zbek romanchiligining asoschisi. “Xalq so‘zi” gazetasining onlayn nashri. <https://xs.uz/uz/post/ozbek-romanchiligining-asoschisi>.

REFERENCES

1. Mirziyoyev, Sh. (2023, December 12). To the participants of the international conference on ‘The Jadids: Ideas of national identity, independence and statehood’. *Newspaper of ‘People’s Word’*, 264(8607), 1.
2. Mirziyoyeva, S. (2023, December 11). We want to apply the educational ideas of the jadids in life. *Kun.uz*. <https://m.kun.uz/uz/news/2023/12/11/saida-mirziyoyeva-biz-jadidlarning-talim-borasidagi-goyalarini-hayotda-qollashga-intilmoqchimiz>.
3. Abdurahmanova, S. (Jour.). (2020, June 27). ‘The Jadids were open to all subjects’ – a

- conversation with a historian about the history of the national press and repressions. *Kun.uz*. <https://kun.uz/24722918?q=%2Fuz%2F24722918#!>.
4. Abdurashidkhanov, M. (2001). *From my memories: Scenes from the history of modernism*. Tashkent: Publishing-Printing Joint-Stock Company of 'East'.
 5. Asilov, G.A., & Kudriddinova, N.D. (2018). *Uzbek language*. Tashkent: Publishing House of 'Young Power'.
 6. Boltaboyev, H. (2007). *Fitrat and Jadidism*. Tashkent: Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi.
 7. Eshmurodova, G. (2023). Interpretation of enlightenment ideas in Abdurauf Fitrat's Work 'Discussion'. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 184–188.
 8. Fitrat, A. (2000). *Selected works* (Vol. 1). Tashkent: Publishing House of 'Spirituality'.
 9. Gasprinsky, I. (1898). *The leader is a teacher or teacher's companion*. Crimea: Simferopol.
 10. Hasanov, B., & Karimov, N. (Eds.). (2016, April 15). Foreword. 'The Contribution of Modern Enlighteners to the Development of National Education, Press, Literature and Art and Its Importance in the Promotion of the National Idea' Proceedings of the Republican Scientific and Practical Conference (pp. 3–5). Tashkent: Publishing-Printing Association of 'Tashkent Islamic University'.
 11. Ibragimov, S.E. (2021). Jadidism movement. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(3), 119–129.
 12. Karimov, N., Mamajonov, S., Nazarov, B. (1999). *History of the Uzbek literature of the 20th century*. Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
 13. Kasimov, B. (2002). *National revival: courage, enlightenment, dedication*. Tashkent: Publishing House of 'Spirituality'.
 14. Koldoshev, R. (2023). Textbooks created in Jadid schools and their methodological possibilities. *Education and Innovation Research*, 1, 221–225.
 15. Komilova, H.N. (2021). Enlightenment in the activities of the ancestors and the issues of education of the perfect generation. *Journal of Scientific Progress*, 2(8), 368–372.
 16. Madvaliyev, A. (Ed.). (2020). *An explanatory dictionary of the Uzbek language: about 80,000 words and phrases* (Vol. 2 Y–M). Tashkent: State Scientific Publishing House of 'National Encyclopedia of Uzbekistan'.
 17. Mahmudhoja, B. (1911, September 29). About the 'Discussion'. *Turkestan Regional Newspaper*, 73.
 18. Namazova, N. (2023). Over the homeland remembering the Jadids... *Scientific-Methodological Journal of Language and Literature Education*, 12, 2.
 19. Onarov, S. (Journ.). (2019, April 10). Founder of Uzbek novel. *Online Edition of 'People's Word' Newspaper*. <https://xs.uz/uz/post/uzbek-romanchiliginig-asoschisi>.
 20. Termizi, K. (2022, November 30). Genre research in Jadid literature (as an example of Cholpan's poetry). International Scientific and Practical Conference 'Prospects of Development of Science in Uzbekistan' (pp. 714–716). Tashkent: Science & Innovation.
 21. Tokay, A. (1976). *Works* (Vol. 3). Tatarstan: Kazan Publishing House.
 22. Yakubov, I. (2012). *Uzbek prose of the period of national renaissance*. Tashkent: Publishing House of 'Science and Technology'.